



O'ZBEKISTONDA AHOLI O'LIMI VA TUG'ILISHDA KUTILAYOTGAN UMR DAVOMIYLIGI KO'RSATKICHINING STATISTIK TAHLILI

Dusnayevo Sherzod Ergashevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

huzuridagi Statistika agentligi

boshqarma boshlig'i o'rinbosari

i.f.f.d. (PhD)


E-mail: census@stat.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14564491>

Aholi statistikasiga oid ko'rsatkichlar, jumladan o'lim (vafot etganlar) va tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko'rsatkichlarsiz mamlakatning demografik holatiga baho berishning imkoni yo'q. Mamlakatimizda demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyati tug'ilish darajasining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari, o'lim darajasining past ko'rsatkichlari, tashqi migratsiyaning bir muncha salbiy saldosi, jami aholida qariyalar ulushining ortishi, parallel ravishda aholining o'rta yoshlilar sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayoni ortayotgani bilan tavsiflanadi.

O'lim tug'ilish bilan bir qatorda aholini takror hosil qilish jarayonining asosiy omili hisoblanadi. Aholini takror hosil qilish jarayoni esa bevosita aholining o'sishiga o'zining ijobiy yoki salbiy t'sirini ko'rsatadi. Demak o'lim hodisasi demografik jarayonlarning o'zgarib borishida muhim jarayon hisolanadi. XX asr boshiga qadar o'lim umuman aholi sonini belgilaydigan har qiluvchi omil edi. Ammo hozirgi vaqtda iqtisodiy jihatdan rivojlangan barcha davlatlarda o'lim nisbatan past darajada barqarorlashgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda respublikada o'lganlar mutlaq soni ortib borgan (1-rasm).





1-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'lim ko'rsatkichlari dinamikasi

1-rasmdan ko'rinadiki, mustaqillik yillari respublika bo'yicha vafot etganlar soni 130,3 ming nafardan 172,8 ming nafarga yoki 32,6 foizga ortgan. Aytish joizki, birlamchi ma'lumotlar bo'yicha demografik vaziyatga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, ilmiy ishimizda har 1000 kishiga to'g'ri keladigan o'lganlar soni hisoblandi. Unga ko'ra, 1991-yilda o'lim koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,7 promilleni tashkil qilgan yoki 1,5 punktga kamaygan. Demak, O'zbekistonda aholiga nisbatan hisoblaganda o'lganlar soni kamayib bormoqda.

Dunyo amaliyoti bo'yicha, "o'limning umumiy koeffitsiyenti qiymati 10 ‰gacha bo'lsa, o'lim darajasi "past", 10,0-14,9 ‰ bo'lsa – "o'rtacha", 15,0-24,9 ‰ bo'lsa – "yuqori", 25,0-34,9 ‰ bo'lsa – "juda yuqori", 35,0 ‰ va undan yuqori bo'lsa "favqulodda yuqori" hisoblanadi. Respublikada bu qiymat 4,7 promilleni tashkil etadi. Demak, O'zbekiston o'lim darajasi past bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Hududlar kesimida tahlil qilganda, o'lim darajasi Toshkent shahri (5,2 ‰), Toshkent (5,1 ‰), Sirdaryo (5,1 ‰), Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,1 ‰) va Surxondaryo (4,8 ‰) viloyatlarida respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan baland.

O'lim umumiy koeffitsiyentining kamayishi 0-9, 10-19, 20-29, 30-39, 40-49, 50-59, 60-69, 70-79 yosh guruhlarida vafot etganlar ko'rsatkichlarining kamayishi bilan bog'liq. Ammo tahlil qilinayotgan davrda (2000–2023-yillar) 80 va undan yuqori yoshda o'lim koeffitsiyenti ortgan. Jumladan, 80-84 yosh guruhida o'lim koeffitsiyenti 2000-yilda 114,2 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich

101,1 promillega yetgan yoki 13,1 punktga tushgan, 85 yosh va undan kattalarda esa 192,4 promilledan 211,4 promillega yoki 19,0 punktga ortgan. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda o'lim asosan endogen omillar tufayli keksa yoshdagi aholida qayd qilingan.

Tahlillarga ko'ra, shahar joylarida aholining o'lim holatlari qishloqlarga nisbatan ko'proq qayd etilgan. 2023-yil shahar joylarida o'limning umumiy koeffitsiyenti

5,0 promilleni, qishloq joylarida esa 4,4 promilleni tashkil etgan. Ayniqsa, Sirdaryo viloyati (8,0 ‰), Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,6 ‰), Buxoro (5,4 ‰) va Xorazm (5,4 ‰) viloyatlarining shahar joylarida o'limning yuqori ko'rsatkichlari qayd qilingan.






Erkaklar o'limi ayollarnikiga qaraganda 10 foiz ko'p. 50 yoshgacha bo'lgan aholining o'lim ko'rsatkichi o'rtacha darajadan oshmaydi (tegishli yoshdagi har 1000 kishiga 4,7). Katta yoshdagilar orasida esa bu ko'rsatkich muntazam ortib borib,

85 hamda undan katta yoshlarda eng yuqori miqdorga yetmoqda (tegishli yoshdagi har 1000 kishiga 211,4).

So'nggi 10-15 yil ichida o'lim sabablarining nozologik tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar yuz bermadi. O'limning asosiy sababchisi qon aylanish tizimi kasalligi hisoblansa, ikkinchi o'rinda nafas olish a'zolari kasalliklari, uchinchi o'rinda o'simtalar, to'rtinchi o'rinda baxtsiz hodisalar, zaharlanish, shikastlanishlar, beshinchi o'rinda ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari turadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'lganlarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha ulushi, 2023-yil, foiz

2023-yilda qayd etilgan o'lim holatining 63,2 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 foizi o'smalardan, 4,9 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 foizi baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlardan, 4,3 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 foizi yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 11,5 foizi boshqa kasalliklardan o'lim holatiga kelgan.


O'lganlarning o'limga olib kelgan sabablari ma'lumotlarida 2023-yilga kelib 2000-yildagi holatga solishtirganda bir qator o'zgarishlar yuzaga kelgan. Kasalliklar bo'yicha tahlil qilinganda qon aylanish tizimi kasalliklaridan vafot etganlar ulushi 10,6 foizga, o'smalardan 1,7 foizga va boshqa kasalliklar 2,3 foizga oshganligini ko'rsak, nafas olish a'zolari kasalliklari 6,7 foizga, baxtsiz



hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar 2,5 foizga, yuqumli va parazitar kasalliklar 2,9 foizga, va ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 1,3 foizga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

1991-yildan boshlab O'zbekistonda onalar o'limining ko'rsatkichi 3,5 baravarga, ya'ni har 100 ming sog'lom tug'ilgan bolaga 65,3 dan 15,9 ga kamaydi (3-rasm).

Respublikada onalar o'limi ko'rsatkichi muntazam kamayayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda uning o'sish tendensiyasi kuzatilyapti. Jumladan, 2010–2023-yillar mobaynida Sirdaryo viloyatida har 100 000 nafar tirik tug'ilganga nisbatan onalar o'limi 12,3 dan 43,0 ga, Qashqadaryo viloyatida – 14,1 dan 18,7 ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 26,4 dan 27,3 ga ortgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida onalar (100 000 nafar tirik tug'ilganga) va chaqaloqlar (har 1000 nafar tug'ilganga nisbatan) o'limi dinamikasi, promille

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991-yilda 1-yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi har ming nafarga 35,5 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 8,5 ga tushdi (3-rasm). Tahlil qilinayotgan davrda respublikaning barcha hududlarida ham chaqaloqlar o'limi darajasi kamaygan.

Respublikada onalar va bolalar o'limi darajasi ancha qisqargan bo'lishiga qaramay, hali rivojlangan mamlakatlarniki bilan taqqoslaganda ancha yuqori. Bu muammoni yechish uchun tug'ruq yoshidagi ayollar kasallanishini profilaktika qilish va ularning sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha tuman, shaharlar, mahallalar darajasida bir qator kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish lozim.

Xalqaro mezonlar bo'yicha go'daklar o'limi koeffitsiyenti 10 %dan kam bo'lsa – past, 10-19 %o bo'lsa – o'rtacha, 20-29 %o bo'lsa – yuqori, 30 va undan





ko'p bo'lsa – juda yuqori hisoblanadi. Mazkur mezon bo'yicha O'zbekistonda go'daklar o'limi darajasi past hisoblanadi.

Tahlillar respublikaning barcha hududlarida ham go'daklar o'limi darajasi past emasligini ko'rsatadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadqryo, Xorazm, Sirdaryo, Namangan, Andijon viloyatlari va Toshkent shahrida – o'rtacha daraja hisoblanadi.

Go'daklar o'limi ko'rsatkichi bo'yicha xalqaro va milliy statistika o'rtasida juda katta farq mavjud. Xususan, BMT agentligining ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonda 2022-yil go'daklar o'limi 11,7 promilleni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha respublikamiz 236 mamlakat ichida 125 o'rinni egallagan.


Mustaqillik yillari (1991–2023-yillar) O'zbekistonda tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 66,4 yoshdan 74,7 yoshga yoki 8,3 yoshga uzaydi. Respublikada erkaklarga qaraganda ayollarning umr davomiyligi yuqori.

Ya'ni, erkaklarniki – 72,5 yoshni, ayollarniki esa 76,9 yoshni tashkil etadi. Qiyosiy tahlillardan ko'rinadiki, erkaklar ayollarga qaraganda o'rtacha 4,4 yil kam umr ko'radi. Mazkur hulosa statistikada qonuniyat hisoblanadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, yosh

	Yillar										2023-yil 1991-yilga nisbatan (+,-)
	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023	
Jami	66,4	69,1	70,8	71,8	73,0	73,6	73,4	73,8	74,3	74,7	8,3
Erkaklar	64,4	66,4	68,4	69,6	70,6	71,2	71,2	71,7	72,1	72,5	8,1
Ayollar	69,4	71,7	73,2	74,1	75,1	76,0	75,5	75,8	76,6	76,9	7,5
Shahar joylari da	66,3	68,7	70,2	71,1	73,1	74,0	73,5	73,8	74,8	75,1	8,8
Qishloq joylari da	67,1	69,6	71,2	72,2	72,7	73,0	73,1	73,8	73,6	74,1	7,0





Hududlar kesimida tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida (77,1 yosh) va Buxoro (76,8 yosh), Navoiy (76,1 yosh), Farg'ona (75,7 yosh) hamda Toshkent (75,4 yosh) viloyatlarida kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar, o'smirlar, mehnatga layoqatli aholi orasida o'lim darajasini pasaytirishga qaratilgan eng samarali chora-tadbirlar – bu sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va tibbiyotni, shu jumladan, profilaktik tibbiyotni rivojlantirishdan iborat. Salomatlikning past darajasi va o'limning yuqori darajasi har qanday davlatning milliy farovonligi bevosita salbiy ta'sir ko'rsatib, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun to'siq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>.
2. Abdurahmonov Q.X., va boshqalar. Demografiya: darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 203-b.
3. "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining buyrug'i 2024 yil 31 maydagi 123-son https://lib.stat.uz/images/metodika/123-buyruq-z_yuldashev_compressed.pdf
4. Dusnayev Sh.E. O'zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy-statistik baholash: Avtoreferat. №43. 2023.

